

FARG‘ONA VODIY QIRG‘IZLARI ETNOMADANIYATIDA MILLIY IDENTIKLIK DINAMIKASI

Baxromjon Boqijonovich Inatullayev
Namangan davlat universiteti

Annotasiya: Mazkur maqolada milliy identiklik tushunchasi Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari etnomadaniyati misolida tahlil etilgan bo‘lib, identiklikni saqlash omillari, elementlari va o‘ziga xos xususiyatlari hamda bugungi kundagi tendensiyalari atroflicha tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari, etnomadaniyat, identiklik, dialekt, urf-odat, an‘ana, marosim, til, milliylik

DYNAMICS OF NATIONAL IDENTITY IN ETHNO-CULTURE OF KYRGYZ PEOPLE OF FERGANA VALLEY

Bakhromjon Bakijonovich Inatullayev
Namangan State University

Abstract: In this article, the concept of national identity is analyzed on the example of the Kyrgyz ethnoculture of the Fergana Valley, and the factors, elements and characteristics of identity preservation, as well as today's trends, are thoroughly analyzed.

Keywords: Kyrgyz of the Fergana Valley, ethnoculture, identity, dialect, ritual, custom, tradition, language, nationality

Farg‘ona vodiysi qirg‘izlarining milliy o‘ziga xosligini ilmiy tadqiq etish uchun O‘rta Osiyoning o‘ziga xos mintaqasida yashovchi bu etnik guruhning madaniy-ijtimoiy xususiyatlarini tushunish muhim vazifasidir. Farg‘ona vodiysi qirg‘izlarining o‘ziga xos etnomadaniy an‘analari, ijtimoiy tuzilishi va boshqa etnik guruhlar bilan o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Farg‘ona vodiysi qirg‘izlarining o‘ziga xos etnomadaniyati va milliy identikligini shakllanishda makon va zamon hodisasiga ko‘ra mavjud tarixiy shart-sharoit muhim ahamiyat kasb etadi.

Etnomadaniyat birinchi navbatda etnik xususiyatga ega bo‘lgan, madaniy element va tuzilmalar yig‘indisi sifatida ko‘rinadi. Etnomadaniyatni o‘zaro ta’sir qiluvchi kanal sifatida ko‘rib chiqish, o‘zaro ta’sir jarayonida amalga oshiriladigan etnikmadaniy funksiyalarni aniqlash imkonini beradi.

Bunday funksiyalarga instrumental (atrof-muhitni yaratish va o'zgartirish), madaniyatlash (shaxsning o'z - o'zini yaratish va o'zgartirish), normativ (jamoaviy hayotni tashkil etish), ahamiyatli (belgi), kognitiv, kommunikativ funksiyalar kiradi.

Etnomadaniyatning barcha elementlari, ya'ni etnik jarayonlarning natijalarini tizimlash va tizimli ravishda birlashtirish orqali etnos bir vaqtning o'zida o'zaro ta'sir tizimi sifatida o'z etnomadaniyatining obyekt, subyekt va tashuvchisi hisoblanadi. Aynan shu munosabat bilan etnomadaniyat shaxslararo va madaniyatlararo o'zaro ta'sirning ko'p kanalli tizimiga aylanadi. Jumladan, etnomadaniyatning bir qator tarkibiy element (urf-odat, qadriyat, me'yor va marosimlar)lari jamiyatda o'zaro ta'sir qiluvchi funksiyani bajaradigan tizimni tashkil qiladi. Marosimlarning madaniy tizimi odamlarning ijtimoiy o'zaro ta'sirini boshqaradi va ularning xatti-harakatlarining stereotiplarini rivojlantiradi. An'anaviy madaniyatning bir qator sohalari urf-odatlar orqali tartibga solinadi - amaliy, kundalik ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat bilan bog'liq o'zaro munosabatlarning kamroq qat'iy, stereotipik shakllaridir.

Milliy o'ziga xos (identik)likning ikki xususiyati - umumiylik va o'ziga xosligi mavjud. Jamoa - millatning tarixi, hududi, tili va dini bilan bog'liq jarayonlarga tashqi havf, milliy tilga mansub yoki bog'liq bo'lmagan til(Yevropa tillari)larni ta'siridan marginallik jarayoni ro'y beradi. Ichki ta'sir deganda milliy til mansub bo'lgan turdosh tillarning ta'siri: folklor, san'at va badiiy adabiyot vositasida erishiladigan bir xillik (bir xillik) darajasidir. Mazkur jihatlar milliy o'zlikni anglashning ichki o'lchovini aks ettiradi.

Milliy o'ziga xos(identik)lik yoki milliy o'z-o'zini anglash, insonning shaxs sifatida o'ziga xosligining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uning ma'lum bir etnik guruh yoki millatga mansubligi bilan bog'liqdir. Milliy o'zlikni anglash - bu "millatni o'ziga xos an'ana, madaniyat va tillar bilan ifodalangan yaxlit bir butunlik" tuyg'usidir.

Milliy o'ziga xos(identik)lik, milliylik yoki fuqarolik tushunchalari bilan bir xil emas, garchi ular unga kuchli ta'sir ko'rsatadigan omillar bo'lishi mumkin. Milliy o'ziga xoslik tug'ma xususiyat emas, bu ma'lum bir guruh, shaxs (individ)lar bilan umummadaniyat, tarix va til haqida ortirilgan xabardorlikdan kelib chiqadi.

Qadimdan Farg'ona vodiysida turli tilda so'zlashuvchi, diniy e'tiqod va etnomadaniyatga mansub, etnik guruhlarining etnomadaniyati, etnik mansublik hamda milliy o'zlikni shakllanib, rivojlanshiga xizmat qildi.

Farg'ona vodiysi mintaqasi, ya'ni geografik joylashuvi, tabiiy landshafti har jihatdan qirg'izlarning o'tmish hayoti, ijtimoiy-madaniy turmush tarzi, sharoitiga yaqinligi, o'z an'ana va urf-odatlarini saqlab, o'zga etnik guruhlar madaniyatini eng sara jihatlarini o'zlashtirishi natijasida qirg'iz xalqining etnomadaniyatiga asos bo'ladi.

Milliy o'ziga xos(identik)lik ko'p bosqichli va murakkab jarayon bo'lishi mumkin, o'z davlatchiligiga ega bo'lmagan kam sonli etnik guruhlar, aksariyat xolatlarida mintaqaviy etnomadaniy o'ziga xoslikka bog'liq bo'ladi. Etnik kelib

chiqishi va hududiy birlik o'rtasidagi bog'liqlik juda yaqin, xuddi shu hodisa: urf-odat, an'ana va etnomadaniyati xususiyatlari haqida ham aytish mumkin.

"2023-yildagi statistika ko'ra dunyoda 6.5 million qirg'izlar istiqomat qilib, shundan 4.6 millionni Qirg'izistonda, 400 mingga yaqini yurtimizda, Rossiyada 137 ming, Xitoyda 125 ming, Tojikistonda 65.5 ming, Turkiyada 2500 va Afg'onistonda esa 2000 nafar qirg'izlar istiqomat qiladi". [1.]

Har bir etnik guruhning o'ziga xos urf-odat va marosimlari uni boshqa xalqlardan ajratib turadigan jihatidir. Bir hududda uzoq muddat yashash, etnik guruhning turmush tarzi, iqtisodiy rivojlanishi, millatlararo munosabatida o'chmas iz qoldiradi.

Ko'chish(migratsiya) deganda avvalo Farg'ona vodiysi qirg'izlari, ibtidosi, Oltoy-Yeneseydan boshlaganiga e'tibor qaratib, ularni qadimda O'rta Osiyo va boshqa hududlarni nazarda tutiladi. Shu sababli, dunyo qirg'izlari degan tushuncha paydo bo'lishiga asos bo'lgan. Ko'chish muhojirlikni o'ziga xos sabab va oqibatlari bor. Sobiq ittifoqda inqilob sodir bo'lgach, O'rta Osiyoning o'zbek, qirg'iz, qozoq va turkmanlar ham Afg'oniston va Qoshqardan panoq topdi, chunki ular, bir kun bu voqealar "qo'rqinchlik tush" kabi o'tib ketib, tug'ilgan yurtiga qaytish ilinjida yashadi. "1925-1930 yillarda o'zbek, qirg'iz, turkman va qozoq kabi ko'p sonli jamoalar Afg'oniston va Eron chegarasida joylashgan hududni makon tutdi. Ammo, XX asr so'ngida Afg'onistonda ro'y bergan notinchliklar bois, bu jamoalar, Turkiyaning Suriya bilan chegaradosh uzoq Hatay viloyatining O'vakent qishlog'iga ko'chib o'tgan, ularni mahalliy aholi "Turkistonlik"lar deyishadi.[2.]

O'rta Osiyo xususan, vodiy qirg'izlari o'zbek, tojik, uyg'ur, qozoq va qoraqalpoq kabi etnik xususiyat, til hamda diniy jihatdan yaqin bo'lgan etnik guruhlar bilan o'zaro yaqin munosabatda bo'lishdir.

Rossiyada 137 ming Qirg'izistonlik, qirg'izlar uzoq yildan buyon Sibir mintaqasida muxojirlikda mehnat qiladi, chunki bu hududda neft va gaz sohasida faoliyat yuritsa, ko'proq maosh olish imkoniyati bor. Ayrimlar, oilaviy er va xotin muxojirlikda, farzandlaridan yiroqda yashab, mehnat qiladi. Yoki oilasi, ya'ni farzandlarini ham birga olib ketganlar ham bor, ular oilaviy muxojirlikda o'zga etnik guruhlar bilan milatlararo munosabatlarda til, din va madaniy tafovutlarga duch kelinadi.

Hozirgi kunda "Xitoyda 125 ming qirg'izlar istiqomat qiladi, sharqiy Turkistonda Yenesey qirg'izlari, qadimdan shu hududda yashaydi, ikkinchi bir etnik guruh qirg'izlar esa tatar tilida so'zlashadi va uchunchi etnik guruh bu, inqilob davrida O'rta Osiyodan ko'chganlar. Qirg'izlar orasida islomdan avvalgi kullarga oid ba'zi madaniy yodgorliklar saqlanib qolgan qirg'izlar (Yemel-Gol yoki qalmoq-qirg'izlari, ya'ni buddist qirg'izlar-Fojiao qirg'izlari)ning kichik bir noyob etnik guruhi yashaydi. Ularning bir qismi islom diniga, ikkinchi qismi, Buddizmning tibet-mo'g'ul

ko‘rinishiga bir necha ming kishiga e‘tiqod qiladi, ular fuyu qirg‘iz tilida so‘zlashadi, ammo turkiy millatga mansub”. [3.-C.123.]

Milliy o‘zlik, etnomadaniyat va milliy o‘ziga xos(identik)likni anglashning o‘rni davlatning barqaror mavjudligining ajralmas omilidir. Tig‘iz vaziyatlarda bu mamlakatning keyingi omon qolishini belgilaydi.

Tojikistonda yashovchi 65.5 ming qirg‘izlar, XVI-asrdan Pomirga, Yeneseidan ko‘chib o‘tib, mahalliy, hind-yevropa irqiga mansub qirg‘izlar bilan integratsiyasi vujudga kelgan. Mamlakatning sharqiy va shimoli-sharqidagi baland tog‘lik aholining asosini tashkil etadi. Qirg‘iz etnomadaniyati, etnik mansubligi va milliy o‘ziga xos(identik)ligi yuzasidan ilmiy tadqiqot olib borgan izlanuvchi, ilmiy manba, ma‘lumotlarni Talas qirg‘izlari bilan qiyosiy tahlil etiladi.

Milliy o‘z-o‘zini anglash - bu shaxslararo munosabatlarda turli yo‘llar bilan obyektivlashtirilgan va ijtimoiy xotirada mavjud bo‘lgan, avloddan-avlodga etnik madaniyatning subyektiv yoki obyektiv shaklida o‘tadigan jamoat va individual ijtimoiy- sinf va milliy birlikdir.

“Talas” so‘zi, ma‘lumotlarga ko‘ra, ikki so‘z brikmasidan kelib chiqqan: “tal”- tepalik, “as”-suv, daryo degan ma‘noni anglatadi, mazkur ibora Talas vodiysining rang-barang landshaftiga juda mos keladi, daryo oqib o‘tgan tepalik, hudud tushuniladi. Ko‘pgina tarixiy va adabiy manbalarda Talas qirg‘iz jangchisi Manas tug‘ilgan joy sifatida tilga olinadi, Manas maqbarasi shahardan unchalik uzoq bo‘lmagan joyda joylashgan, u haqida odamlar, ko‘plpb afsona va rivoyatlar yaratgan. Ayrimlar esa bu joy qahramonning so‘nggi manzili, deb hisoblaydi.” [3.-C.149.]

Talas dialektining shakllanishi tugallangan. U qipchoq va o‘g‘uz tillarining sezilarli ta‘sirini boshdan kechirdi, shuningdek, arab va eron tillaridan lahja(til)ning leksik me‘yoriga moslashtirilgan. Bundan tashqari, dialekt hali ham mo‘g‘ul va Sibirning turkiy bo‘lmagan etnik guruhlarini tillaridan ayrim leksik jihatlari saqlanib qolgan.

“Til vositasida millat qadriyatlari, dunyoqarashi va madaniy xususiyatlarini aks etiradi. Qadimgi Yenisey-qirg‘iz tili dastlab o‘rxon-yenisey tili bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, xuddi o‘rxon-uyg‘ur tili (dialekt) shevasi sifatida mustaqil taraqqiyotga erishgan”. [4.-C. 124.]

Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari, etnomadaniyati va milliy o‘ziga xosligining muhim tarkibiy qismi sifatida moddiy hamda ma‘naviy merosini ko‘rsatish o‘tish mumkin. Etnik o‘ziga xoslikni shakllantirish va saqlashda an‘anaviy tili, milliy urf-odat va moddiy madaniyati muhim o‘rin tutadi. Farg‘ona vodiysi qirg‘izlari va milliy o‘ziga xos(identik)ligini milliy urf-odat va an‘analarini saqlagan xolda avloddan-avlodga o‘tkazib kelmoqda, bu esa ularning o‘tmish bilan bog‘liq tarzda etnomadaniy an‘analari vositasida ildizlarini mustahkamlaydi.

Milliy qadriyatlar, oilaviy an'ana, urf-odat va milliy an'analar ham qirg'iz millatiga mansublikni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Oila jamiyatning asosi bo'lib, an'anaviy rol va mas'uliyatlar etnik mansublik tuyg'usini mustahkamlaydi. An'anaviy qirg'iz oilasi tabiatan patriarxaldir, agar oilada bir necha nafar o'g'il farzand bo'lsa, kenja o'g'il oila qurgandan so'ng ham ota-onasi bilan qoladi va ota uyi unga meros bo'lib o'tadi.

Qirg'iz xalqi an'analariga ko'ra, har bir qirg'iz, avvalo o'zini qaysi urug'ga mansubligini, yetti ("yetti ota") avlodining ism, sharifi va ular mansub bo'lgan urug' avlodini albatta bilishi kerak. Qizlar turmushga chiqqach, u endi erining oilasiga mansub bo'ladi, uning dunyoga keltirgan farzandlari ham er avlodiga taalluqli bo'ladi.

Qirg'iz xalqining ajdodlarining boy madaniy merosiga asoslangan marosimlari o'ziga xosligi va rang-barangligini saqlab, zamonaviy hayotga kirib keldi. Qirg'izlar hayotida marosimlar alohida o'rin tutadi. Masalan, farzandlar tug'ilishi va voyaga yetishi, unashiruv, to'y kabi hayotning quvonchli damlari g'ayrioddiy rang-barang qadimiy marosimlar bilan birga keladi.

Qadim qirg'iz an'analariga ko'ra, uylanadigan yigit o'zga urug'dan qiz olib qochgan, avallo uylanadigan yigitning mard, qo'rqmas va jasurligi alomati sanalgan. Qolaversa, yigitning qarama-qarshi jins vakili bilan til topisha olishi, qizning roziligi bilan o'g'irlash chin ma'nodagi mardlik sifatida yigit urug'i uchun sharafli hisoblangan. Shuningdek, qiz imkon qadar begona urug'dan olib qochilishi, toza qon va yangi urug'ni qo'shilishi nasl sog'lomligini ta'minlashga xizmat qilgan. Begona urug' bilan qarindoshlik rishtalarini bog'lash, urug'lar o'rtasida ijtimoiy-madaniy munosabatlarni bog'lashga asos bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. [www.http: Киргизы. Материал из Википедии](http://www.kirgizy.ru), 2024.
2. Xolmirzayev X. D. Halimmetova R. D. Unread pages of the life story of uzbeks abroad ... GALAXY International nterdisciplinary research journal (GIIRJ) : 2347-6915. Vol. 10, Issue 3, Mar. (2022)
3. Кочкунов А. Этнические традиции кыргызского народа {социокультурные аспекты и некоторые вопросы генезиса}. Бишкек: 2013.
4. Минасян А.М. Диалектика как логика. Учебник по философии. Ростов - на -Дону, 1991.